



## SIRKULAR IQTISODIYOTDA KENGAYTIRILGAN ISHLAB CHIQARUVCHI MAS'ULIYATINING AHAMIYATI

*i.f.n., dots. Sodikov Zokir*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*ORCID: 0000-0002-0195-4573*

*[z.sodiqov@iiua.uz](mailto:z.sodiqov@iiua.uz)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sirkulyar iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) konsepsiyasining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda EPR siyosatining chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarishni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. O'zbekiston sharoitida ushbu konsepsiyani joriy etish sirkulyar iqtisodiyot modeliga o'tishda, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishda hamda ishlab chiqaruvchilar ekologik mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** sirkulyar iqtisodiyot, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR), chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash tizimi, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqaruvchi javobgarligi, ekologik siyosat.

## ЗНАЧЕНИЕ РАСШИРЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРОИЗВОДИТЕЛЯ В ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКЕ

*к.э.н., доц. Содиков Зокир*

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье проанализированы теоретические основы и практическая значимость концепции расширенной ответственности производителя (EPR), являющейся важной составляющей циркулярной экономики. В исследовании освещена роль политики EPR в сокращении отходов, эффективном использовании ресурсов и формировании экологически устойчивого производства. Обоснована важность внедрения данной концепции в условиях Узбекистана для перехода к модели циркулярной экономики, развития инфраструктуры переработки отходов и повышения экологической ответственности производителей.

**Ключевые слова:** циркулярная экономика, расширенная ответственность производителя (EPR), управление отходами, система переработки, зелёная экономика, устойчивое развитие, экологическая эффективность, рациональное использование ресурсов, ответственность производителя, экологическая политика.

## THE IMPORTANCE OF EXTENDED PRODUCER RESPONSIBILITY IN THE CIRCULAR ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Sodikov Zokir**  
International Islamic Academy of Uzbekistan

**Abstract.** *This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of the Extended Producer Responsibility (EPR) concept, which is an important component of the circular economy. The study highlights the role of EPR policies in reducing waste, promoting efficient use of resources, and fostering environmentally sustainable production. The introduction of this concept in the context of Uzbekistan is substantiated as being crucial for transitioning to a circular economy model, developing waste recycling infrastructure, and enhancing the environmental responsibility of producers.*

**Keywords:** *circular economy, extended producer responsibility (EPR), waste management, recycling system, green economy, sustainable development, environmental efficiency, resource optimization, producer accountability, environmental policy.*

### **Kirish.**

Globalashuv davrida dunyoda ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan birga chiqindilar miqdori ham keskin ortib bormoqda. Bu esa tabiiy resurslar tanqisligi, ekologik muvozanatning buzilishi, chiqindilarni qayta ishlashning sustligi kabi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda an'anaviy "ol-ishlat-tashla" modeli asosida barpo qilingan iqtisodiyot tizimi barqaror rivojlanish talablariga javob bermaydi. Shu bois, sirkulyar iqtisodiyot (aylanma iqtisodiyot) kontsepsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini yopiq siklda tashkil etish, chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlab, iqtisodiy aylanishga qaytarish orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlikka erishishni maqsad qilgan. Biroq, shu maqsadga xizmat qiluvchi kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR — Extended Producer Responsibility) mexanizmi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda ham yetarli darajada joriy etilmagan. Shuning uchun hozirda ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarining butun hayotiy sikli — ishlab chiqarish, foydalanish va utilizatsiya bosqichlaridagi salbiy ta'siri uchun mas'ul hisoblanmaydi. Shu boisdan, sirkulyar iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchi mas'uliyatini kengaytirish mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) tizimining iqtisodiy va ekologik ahamiyatini asoslab berish, uning O'zbekiston sharoitida joriy etish borasida taklif va tavsiyalar berish asosiy maqsad hisoblanadi. Shu bois sirkulyar iqtisodiyotning nazariy asoslarini va uning barqaror rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilish, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining mohiyati, maqsadi va xalqaro amaliyotdagi tajribalarini o'rganish, EPR tizimining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklarini ko'rsatish, mahsulot chiqindilarini qayta ishlashni rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni tavsiya etish, sirkulyar iqtisodiyotga mos EPR siyosatini shakllantirish va milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuning tanlanishiga global ekologik muammolar va chiqindilar hajmining ortib borishi, Sirkulyar iqtisodiyotning jahon miqyosida ustuvor yo'nalishga aylanishi (Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Koreya va Xitoy tajribalari), O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash bo'yicha huquqiy asoslar shakllanayotganligi, ammo ishlab chiqaruvchi mas'uliyati mexanizmlari sust rivojlanganligi, Barqaror ishlab chiqarish va iste'molga o'tish uchun iqtisodiy rag'batlarni kengaytirish ehtiyojlari va "Yashil iqtisodiyot" kontsepsiyasi doirasida sirkulyar mexanizmlarni amaliyotga joriy etish zarurati asos bo'lgan. Mavzu dolzarbligini chiqindilar oqimini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashi, ikkilamchi xomashyo bozorini rivojlantirib, resurslardan samarali foydalanish imkonini berishi, ishlab

chiqaruvchilarning ekologik javobgarligini oshirishi, davlat xarajatlarini kamaytirib, xususiyl sektorini chiqindilarni boshqarishga jalb etishi, “Yashil o’sish” va “barqaror iqtisodiyot” strategiyalarini amalga oshirishda muhim rol o’ynashi belgilab beradi. Mavzu obyekti ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati va chiqindilarni boshqarish tizimi, ularning chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash hamda qayta foydalanishdagi roli ko’rib chiqiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Sirkulyar iqtisodiyotda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati masalalari so’nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim yo’nalishiga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu yondashuv ishlab chiqaruvchilarning mahsulot hayot aylanishi davomida chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda qayta ishlash tizimini takomillashtirishdagi mas’uliyatini kengaytiruvchi konsepsiya sifatida talqin etiladi.

Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati (EPR) kontsepsiyasi dastlab Thomas Lindhqvist (1992) tomonidan Shvetsiyada ishlab chiqilgan. OECD (2001; 2016) hujjatlarida EPR tizimining asosiy elementlari – ishlab chiqaruvchining moliyaviy va tashkiliy mas’uliyati, qayta ishlash infratuzilmasi, iste’molchi ishtiroki va davlat nazorati mexanizmlari – batafsil bayon etilgan. Walls (2006), Kaffine va O’Reilly (2015) EPRning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan. Yevropa Ittifoqining 2008/98/EC direktivasi EPRni qonunchilik darajasida mustahkamlab, ishlab chiqaruvchilarga chiqindilarni yig’ish va qayta ishlash majburiyatlarini yuklaydi. Adabiyotlar tahlilidan sirkulyar iqtisodiyotda EPR tizimi resurslarni qayta aylantirishni tezlashtiruvchi, chiqindilarni kamaytiruvchi va “yashil” iqtisodiy o’sishni qo’llab-quvvatlovchi mexanizm ekanligi kelib chiqadi. Xalqaro tajribalar EPRni iqtisodiy rag’batlantirish va qonunchilik asosida joriy etish chiqindilar oqimini kamaytirish mumkinligini ko’rsatadi. O’zbekiston sharoitida EPR mexanizmini institutsional va moliyaviy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati konsepsiyasining mohiyati va uning asosiy yo’nalishlari tahlil qilindi. EPR bo’yicha xalqaro tajribalar va ishlab chiqaruvchi mas’uliyatini joriy etish amaliyotlari o’rganilib, ilmiy asoslangan va real hayotga oid natijalar olindi. Shvetsiya, Germaniya, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, Fransiya tajribalari o’rganilib, milliy iqtisodiyotda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati mexanizmini joriy etish borasida tavsiyalar berildi. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot tizimi ishlab chiqarish–iste’mol–qayta ishlash–resurs aylanishi zanjiri sifatida ko’rib chiqildi va EPR bu tizimning “boshqaruv mexanizmi” sifatida tahlil qilindi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Sirkulyar iqtisodiyot (aylanma iqtisodiyot)ni rivojlantirishdagi eng muhim instrumentlardan biri bu kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati (Extended Producer Responsibility – EPR) mexanizmini joriy etish hisoblanadi. Shuning uchun kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati konsepsiyasining nazariy asoslarini, amaliy ahamiyatini va jahon tajribasini chuqur va tizimli tarzda tahlil qilish hozirgi kunda ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Aynan, sirkulyar iqtisodiyotni rag’batlantirish uchun kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati joriy etilib, qayta ishlash, qayta foydalanish, ta’mirlash, eco-dizayn, resurs samaradorligi standartlari va boshqa shu kabi mexanizmlarni qo’llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Xususan, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati— bu ekologik siyosatni yuritish tamoyili bo’lib, unga ko’ra ishlab chiqaruvchi o’z mahsulotining butun “hayot sikli” (life cycle) tugagach ham, aynan chiqindiga aylangach ham, uning ekologik oqibatlari uchun mas’ul bo’ladi.

Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati tushunchasining mohiyati bu ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi ushbu mahsulotning butun hayotiy tsikli bo'lmish, ishlab chiqarish yoki yaratish → foydalanish → chiqindiga aylanish bosqichi uchun mas'ul bo'lishini nazarda tutuvchi ekologik boshqaruv tamoyili va ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga molik ustuvor faoliyat mexanizmi hisoblanadi. Oddiy ifoda bilan aytganda, mahsulotni ishlab chiqargan yoki import qilgan korxona, uni iste'mol qilingandan keyingi chiqindilarini ham qayta ishlash yoki to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish uchun ham mas'ul subyekt hisoblanadi.

Buning mohiyati shundaki, oddiy sharoitda mahsulot sotilgach, ishlab chiqaruvchining javobgarligi tugaydi, ammo, EPR tizimida esa mahsulot iste'mol qilingach chiqindiga aylansa, uni yig'ish, qayta ishlash yoki zararsizlantirish xarajatlari ishlab chiqaruvchi zimmasiga yuklanadi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad – bu chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va resurslarni qayta aylanishga kiritishni rag'batlantirish, mahsulot dizaynini ekologik standartlarga muvofiq qilish (masalan, plastik o'rniga qayta ishlanishi oson materiallardan foydalanish), davlat byudjetiga tushadigan chiqindi boshqaruvi yukini kamaytirish kabilardir. Ushbu mexanizmni amalga oshirish usullari sifatida depozit-tizimini yaratish, masalan, ichimlik butilkasi yoki qadoq uchun qo'shimcha pul olinib, butulka qaytarilganda iste'molchiga to'lov puli ham qaytarib berilishi mumkin. Shuningdek, majburiy yig'ish va qayta ishlash mexanizmi orqali ishlab chiqaruvchilar chiqindilarni yig'ish punktlarini tashkil qilishi, Eko-to'lovlar (eco-fees) tizimini joriy qilib, mahsulot narxiga chiqindilarni qayta ishlash xarajatlarini oldindan qo'shib hisoblashi, Yevropa mamlakatlaridagi kabi ishlab chiqaruvchining mas'uliyati tashkiloti (PRO – Producer Responsibility Organization) sifatida bir nechta tadbirkorlar qo'shib chiqindi boshqaruv tizimini moliyalashtirishi mumkin.

Jahon amaliyoti sifatida Yevropa Ittifoqida elektron chiqindilarni, avtomobil shinalarini, akkumulyator va qadoqlash materiallarini kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati, AQSh va Kanadada esa ichimlik butilkalariga depozit tizimi, Janubiy Koreya va Yaponiyada ishlab chiqaruvchilar plastik va elektron chiqindilarni yig'ib, qayta ishlash majburiyatiga asoslangan mexanizm keng qo'llaniladi. Umuman muxtasar ifoda qilganda, EPR – bu “ifloslantiruvchi to'laydi tamoyili”ning kengaytirilgan shakli bo'lib, unda ishlab chiqaruvchi mahsulot sotilgandan keyin ham uning chiqindi sifatida tabiatga zarar yetkazmasligini ta'minlashi kerak bo'ladi. Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati konsepsiyasining nazariy asoslari ekologik iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga tayanadi. Shu bois bu borada quyida keltirilgan yondashuvlarni kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati konsepsiyasining asosiy nazariy poydevori sifatida ko'rish mumkin. Xususan:

1-jadval

| Nazariy yondashuv                                              | Asosiy g'oya                                                                                             | EPR bilan bog'liqligi                                                                        |
|----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Ifloslantiruvchi to'laydi” tamoyili (Polluter Pays Principle) | Kim atrof-muhitga zarar yetkazsa, o'sha shaxs xarajatni to'lashi kerak                                   | Ishlab chiqaruvchi chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash xarajatini o'z zimmasiga oladi |
| Hayotiy tsikl tahlili (Life Cycle Assessment)                  | Mahsulotning ishlab chiqarishdan utilizatsiyagacha bo'lgan barcha bosqichlari baholanadi                 | Ishlab chiqaruvchi har bir bosqichda ekologik izni kamaytirish uchun mas'ul hisoblanadi      |
| Sirkulyar iqtisodiyot nazariyasi                               | Resurslar doiraviy aylanishda bo'lishi kerak. Shu bois, chiqindi resursga aylanadi                       | EPR chiqindilarni resurs sifatida ko'rish imkonini beradi                                    |
| Xususiy sektorning ekologik javobgarligi                       | Barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun faqat davlat emas, balki biznes ham javobgar bo'lishi kerak | EPR orqali ishlab chiqaruvchilar ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi                   |

Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining amaliy ahamiyati - bu ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ko'plab muvaffaqiyatlarga va foydali natijalarga zamin yaratishida namoyon bo'ladi. Xususan:

- Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining ekologik ahamiyati - bu mamlakatda chiqindilar hajmining keskin kamayishiga, chiqindilarni qayta ishlash (recycling) hajmining mislsiz darajada ortishiga, chiqindi poligonlarida to'planadigan chiqindilar hajmining sezilarli darajada kamayishiga omil bo'lish bilan bir qatorda tabiiy resurslardan foydalanish hajmining qisqarishiga va ekologiyaga zarar yetkazish ko'lamining cheklanishiga xizmat qiladi. Shu bois, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining ekologik ahamiyati natijasida global xarakterga ega bo'lgan muammolarni bartaraf qilishda va inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni sog'lomlashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

- Ayni paytda, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining ekologik ahamiyati bilan bir qatorda iqtisodiy yutuqlari va moliyaviy samarasi ham mavjuddir. Jumladan, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining iqtisodiy muvaffaqiyatlari sifatida qayta ishlash sanoatini rivojlantirishini va "yashil" ish o'rinlarini yaratishini, tabiiy resurslarni tejash va arzon resurslardan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishini, qayta ishlangan xomashyodan foydalanish natijasida xomashyo masalasida tashqi bozorga bog'liqlikni bartaraf qilishini, ekologik innovatsiyalar va "eko-dizayn"ni rag'batlantirishini keltirish mumkin.

- Bundan tashqari, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining jamiyat va kishilarning turmush tarzi uchun yutuqlari ham katta ahamiyatga egaligini ko'rish mumkin. Xususan, bu kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatining ijtimoiy ahamiyati aholining ekologik madaniyatini oshirishda, mahalliy jamiyatlarning chiqindi yig'ish tizimida faol ishtirok etishida va ijtimoiy mas'uliyatli biznes modelini shakllantirishida yuzaga chiqadi.

Jahon amaliyotida kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) dastlab 20-asrning 90-yillarida Yevropa mamlakatlarida shakllandi va hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida amalda keng qo'llanilmoqda. Bu borada ayrim ilg'or tajribalarni quyidagi jadvalda keltirilgan mamlakatlar faoliyatida kuzatish mumkin:

2-jadval

| Mamlakat       | EPR dasturi boshlangan yil | Asosiy yo'nalishlar                                                      | Natijalar                                                                                                                       |
|----------------|----------------------------|--------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Shvetsiya      | 1994                       | Qadoqlash chiqindilari, elektronika, avtomobil detallarini qayta ishlash | Chiqindilarning 99%i qayta ishlanadi va Chiqindi poligonlari deyarli yopilgan                                                   |
| Germaniya      | 1991                       | Qadoqlash materiallari (Packaging Ordinance)                             | Qadoqlash chiqindilari 80% gacha qayta ishlanadi                                                                                |
| Yaponiya       | 2001                       | Elektronika, avtomobil, plastmassa, mebel                                | "Home Appliance Recycling Law" (Maishiy texnikani qayta ishlash qonuni) asosida chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash majburiy |
| Kanada         | 2009                       | Elektron chiqindilar va batareyalar                                      | Ishlab chiqaruvchilar va importchilar to'liq javobgar                                                                           |
| Janubiy Koreya | 2003                       | Elektronika, plastmassa, qog'oz, shisha                                  | Qayta ishlash darajasi 75% gacha oshgan                                                                                         |
| Fransiya       | 2007                       | Oziq-ovqat qadoqlari, tekstil, o'yinchoqlar                              | EPR jamg'armasi orqali qayta ishlash tizimi moliyalashtiriladi                                                                  |

Milliy iqtisodiyotda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyatini samarali joriy etish uchun mamlakatlar o'ziga xos mexanizmlardan foydalanadi. Xususan:

Dastlab, huquqiy asos yaratish – chiqindilarni boshqarish to'g'risidagi qonunlarda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati bo'yicha majburiy me'yorlarni belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mahsulot uchun to'lov tizimini yaratish – ishlab chiqaruvchi chiqindi yig'ish va qayta ishlash xarajatini oldindan to'laydigan tizim yaratiladi.

Kollektiv ishlab chiqaruvchi mas'uliyati tashkilotlari (PRO – Producer Responsibility Organizations) tuziladi – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash faoliyati bilan shug'ullanadigan bo'ladi.

Monitoring va hisobot tizimi tashkil etiladi – ishlab chiqaruvchilar chiqindilar hajmi va undan qayta ishlanayotgan ulushi hamda natijalari bo'yicha muntazam ravishda monitoring qiladi va tahliliy hisobot berib boradi.

Rag'batlantirish chorasi yo'lga qo'yiladi – eko-mahsulot ishlab chiqaruvchilarni soliq imtiyozlari va grantlar berish orqali qo'llab-quvvatlash tizimi yaratiladi.

Jahonda globallashuv avj olib borayotgan va dunyoda ekologik muammolar chuqurlashib borayotgan sharoitda O'zbekistonda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati tizimini joriy etish sirkulyar iqtisodiyot strategiyasining muhim ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida "Aholining maishiy chiqindilar bilan bog'liq xizmatlar sifatidan to'liq qoniqishini ta'minlash, ushbu xizmatlar darajasini xalqaro standartlarga yetkazish va tadbirkorlar uchun jozibadorligini ta'minlash, hosil bo'layotgan chiqindilarni qayta ishlash darajasini keskin oshirish, chiqindilarning poligonlarda to'planishining oldini olish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirni minimallashtirish, "nol chiqindi" tamoyiliga erishish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida" ko'plab vazifalar ko'zda tutilgan bo'lib, ular chiqindilar bilan bog'liq xizmatlarni xalqaro standartlarga chiqarish va bu faoliyatni tadbirkorlar uchun jozibadorligini kuchaytirish, chiqindilarni qayta ishlash darajasini keskin oshirish va ularning poligonlarda yig'ilib qolishining oldini olish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni bartaraf qilish, "nol chiqindi" tamoyiliga erishish va mamlakatda sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish kabi jihatlardan iborat bo'lmoqda.

Bular bilan bir qatorda sirkulyar iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va ekologik tizim barqarorligini mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va import bilan shug'ullanuvchilarning faoliyati bo'yicha javobgarligini kuchaytirish maqsadida taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasida muvaffaqiyatlarga asos bo'lgan milliy ishlab chiqaruvchilarning o'zining faoliyat yo'nalishlari bo'yicha mas'uliyatlarini bosqichma - bosqich kengaytirishga xizmat qiladigan va iste'molchilar madaniyatini yanada oshirishga omil bo'ladigan mexanizmni joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur mexanizm dunyodagi ko'plab rivojlangan mamlakatlar amaliyotida tabiatni asrash va ekologiyani muhofaza qilishda hamda ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy mas'uliyatini tovar ishlab chiqarish faoliyatini dizayn qilish bosqichidan tortib, iste'mol qilingandan keyin hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash yoki qayta foydalanish yoki kompostlash yoki ularni batamom yo'q qilishgacha bo'lgan amaliyotlarni to'liq bajarilishini kafolatlaydi.

Shuningdek, ushbu jarayon bilan bog'liq xarajatlar bevosita ishlab chiqaruvchilar yoki bilvosita iste'molchilar zimmasiga yuklanadi hamda bu borada hokimiyatlar zimmasidan mas'uliyatlar soqit bo'ladi hamda tabiiy ravishda ekologiyani muhofaza qilishda uni ifloslantiruvchi va zarar yetkazuvchilarning o'zlari faol ishtirok etadi. Buning uchun milliy iqtisodiyotda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati mexanizmini keng joriy etish va unga rioya qilgan biznesmenlarni tashkiliy hamda moliyaviy jihatdan (subsidiyalar va soliq imtiyozlari bilan) qo'llab-quvvatlash, talablarga rioya qilmaganlarga va ekologiyaga oid mezonlarga bepisand bo'lganlarga jarimalar joriy etish yoki cheklovchi chora-tadbirlar belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois, O'zbekistonning milliy ishlab chiqaruvchilari

uchun kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) mexanizmini joriy etilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi va unda quyida keltirilgan sohalarga ustuvorlik qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, ushbu mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilariga:

- Plastik va polietilen qadoqlashlar;
- Elektron chiqindilar (maishiy texnika);
- Avtomobil detallar va akkumulyatorlar;
- Ichimlik suvi idishlari va alyuminiy qutilar;
- Va boshqa shu kabi chiqindilari atrof-muhitga va ekologiyaga salbiy ta'sir qiladiganlarga.

Mamlakatdagi milliy ishlab chiqaruvchilari uchun kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) mexanizmini joriy etilsa, o'ziga xos natijalarga va muvaffaqiyatlarga erishilishi mumkin. Jumladan:

- Milliy iqtisodiyotda chiqindilarni qayta ishlash sanoatining rivojlanishiga;
- Chiqindilarni eksport qilish yoki keraksiz ashyo sifatida yo'q qilish o'rniga mahalliy resurs sifatida qayta ishlash mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni keltirib chiqaradi.

- Chiqindilar qayta ishlash uchun to'liq o'zlashtirilishi natijasida atrof-muhit ifloslanishining oldi olinadi va bu borada davlat xarajatlari tejalishiga erishiladi.

- Mamlakatda "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun moddiy va moliyaviy manbalar yaratiladi.

Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati modelini milliy iqtisodiyotda joriy etish o'ziga xos yutuqlarni va muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga zamin yaratadi. Jumladan ular:

Ekologik samaradorlik. Jahon tajribasida kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) konsepsiyasi chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash darajasini sezilarli darajada oshirishga omil bo'ladi. Rivojlangan ko'plab mamlakatlarda plastik va qadoqlash chiqindilarining qayta ishlash darajasi 60%dan 80% gacha bo'lmoqda, ayrim mamlakatlarda elektron chiqindilar bo'yicha ishlab chiqaruvchilar majburiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgani uchun ekologik ifloslanish sezilarli hajmda kamaygan.

Iqtisodiy samaradorlik. EPR siyosati ishlab chiqaruvchilar va davlat uchun moliyaviy barqarorlik yaratadi. PROlar orqali chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash tizimi samarali moliyalashtiriladi, davlat byudjetiga tushadigan bosim kamayadi, kichik va o'rta korxonalar uchun moliyaviy rag'batlar EPRni muvaffaqiyatli tatbiq etishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Innovatsion va dizayn yondashuvlari. EPR ishlab chiqaruvchilarni mahsulot dizaynini tayyorlashda ekologik tamoyillarga amal qilishini rag'batlantiradi. Eko-dizayn va qayta ishlash uchun oson mahsulotlar ishlab chiqarish resurslardan samarali foydalanishni oshiradi. Raqamli monitoring tizimlari va ma'lumotlar bazalari orqali chiqindilar oqimini real vaqt rejimida nazorat qilish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida EPR. Hozirgi kunda chiqindilarni boshqarish tizimi modernizatsiya qilinayotganda jahon tajribasi bo'lmish EPR konsepsiyasini O'zbekistonda joriy etish chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirish, ishlab chiqaruvchilarni ekologik mas'uliyatga jalb qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan PROlar orqali qadoqlash, plastik va elektron chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash mexanizmlari tashkil qilinishi mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Milliy iqtisodiyotda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) mexanizmini joriy etish – bu sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning amaliy mexanizmi bo'lib, u ishlab chiqaruvchini o'z mahsulotining chiqindiga aylangandan keyingi bosqichi uchun ham javobgar qiladi. Shuningdek, bu mexanizm iqtisodiy jihatdan resurs tejamkorligiga olib keladi, ekologik jihatdan chiqindilarni kamaytirishga va ijtimoiy jihatdan esa mas'uliyatli iste'molni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Chunki, EPR konsepsiyasi sirkulyar iqtisodiyotning samarali

instrumenti hisoblanadi. Jahon tajribasi ishlab chiqaruvchi mas'uliyatini kuchaytirish, moliyaviy rag'bat va innovatsion texnologiyalar orqali chiqindilarni boshqarish tizimi barqaror bo'lishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida EPRni joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlari, pilot loyihalar va davlat-sanoat hamkorligi talab etiladi.

### ***Adabiyotlar/Jumepamypa/References:***

- Allen-Taylor, K.O. (2022) *A study of the EPR scheme for plastic waste management in Germany.*
- Anh, T.T.Y., Herat, S. and Prasad, K. (2025) *A review on EPR schemes for packaging waste management and research gaps in the field.*
- Bocken, N. and Short, S. (2021) *Circular economy and business model innovation. Journal of Cleaner Production.*
- Cai, Y.-J. and Choi, T.M. (2021) *Extended producer responsibility: A systematic review and innovative proposals for improving sustainability.*
- European Commission. (2020) *Circular economy action plan. Brussels.*
- Geissdoerfer, M., et al. (2017) *The circular economy – A new sustainability paradigm. Journal of Cleaner Production.*
- Hilton, M. and Sherrington, C. et al. (2024) *Extended producer responsibility and trade flows in waste: The case of batteries.*
- Kaffine, D. and O'Reilly, P. (2015) *Waste not, want not: Producer responsibility and EPR efficiency. Ecological Economics.*
- Ministry of Environment, Japan. (2021) *EPR implementation review. Tokyo.*
- OECD. (2016) *Extended producer responsibility: Updated guidance for efficient waste management. Paris.*
- OECD. (2019) *Business models for the circular economy. OECD Publishing.*
- OECD. (2022) *Global material resources outlook to 2060. OECD Publishing.*
- Farmon (2024) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2024-yil 4-yanvar, PF-5-son) farmoni*
- PubMed Review. (2015) *Review of extended producer responsibility: A case study approach.*
- Sultonov, P. (2018) *Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: Ziyonet.*
- UN Environment Programme. (2022) *Global status report on waste management.*
- Xashimova, S.N. (2024) *Yashil iqtisodiyot. Darslik. Toshkent: Ma'rifat.*
- Xo'janazarov, O.E. and Yakubjonova, Sh. (2018) *Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: Barkamol Fayz Media.*
- Xotamov, I., Sultanov, M. and Yadgarov, A. (2021) *Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish.*
- Yamakawa, H. (2018) *Theoretical rationale of extended producer responsibility policy.*